

IJTIMOIIY-AXLOQIIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIIY ISTIQBOLLARI

Mustayev Ruslan Damirovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Orcid: 0009-0000-8944-4975

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22669747>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 8-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 9-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Maqolada Temuriylar davri mutafakkirlari qarashlarining ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi ilmiy-nazariy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil etilgan. Mutafakkirlarning adolat, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik va ma'rifatga oid g'oyalari zamonaviy tarbiya jarayoni bilan uyg'unlikda yoritilgan. Mazkur ma'naviy merosdan yoshlarning axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so'zlar:

Temuriylar, mutafakkirlar, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy meros, adolat, insonparvarlik, tarbiya, dunyoqarash.

Mamlakatimiz kelajagini belgilashda shijoatli, qat'iy, maqsadni aniq qo'yib, shu asosda harakat qilayotgan yoshlarning o'rni katta. Kelajak egalarining barkamol bo'lib voyaga yetishi, ilmu fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashi, davr talablari asosida ta'lim va tarbiya olishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun yetarlicha sharoitlar muhayyo etilyapti.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy g'oyalari ming yillar ilgari yozilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham yoshlarimizni ma'naviy-axloqiy, diniy-dunyoviy, g'oyaviy-siyosiy madaniyatlari ni shakllantirishda tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlarini o'rganishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda komil inson tarbiyasidan tashqari, xalqimizning qadimiy urf-odatlar va udumlari, an'analar ham yaxshi yoritilgan. Shuning uchun ham ularning asarlari har bir o'sib kelayotgan yosh avlod aql-farosatini, jasurlik, tadbirkorlik, mustaqil fikrga ega bo'lib, ijodiy tafakkurini shakllantirish, turli xildagi vayronkor g'oyalarga bo'ysunmasdan, bunyodkorlik g'oyalari ruhida millatimizni, o'zligini asrab-avaylash, vatanparvarlik, insoniylik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo mutafakkirlari asarlarida aks etgan milliy urf-odatlar, an'analar va insoniy qadriyatlar, asar qahramonlarining mardlik, sadoqat, vatanparvar, adolatparvarlik, do'stlik, halollik kabi xislatlarga ega bo'lganligi yovuzlik har doim mag'lubiyatga uchrashini his etishlarida, bugungi kunda o'sib ulg'ayotgan yoshlar madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'tmish mutafakkirlarining barkamol, komil inson haqidagi fikrlari, insonparvarlik, bunyodkorlik g'oyalari bugun ham g'oyaviy-siyosiy madaniyatimizni shakllantirishda qimmatli noyob xazinadir. Shunday ekan,

ulardan oiladan boshlab ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda, farzandlarimizning g'oyaviy-siyosiy madaniyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish ayni muddaodir.

Tarixdan ma'lumki XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hirot madaniy va ilmiy markazga aylanib borgan. Ayniqsa, Sulton Xusayn Boyqaro xukmdorligi davrida bu mintaqada ilm-fan, adabiёт sohasida yuksalish yuz berdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi jahonga mashhur mutafakkirlar yetishib chiqdi. Ulardan biri bo'lgan Jomiyning ko'pgina asarlarida inson, adolat, axloq va ma'naviy yetuklik, muhabbat, ezgulik g'oyalari tasvirlanadi. O'rta asr (temuriylar) madaniyatining gurkirab borishiga o'zining ijtimoiy-siёsiy va axloqiy qarashlari bilan mukammal jamiyat, adolatli shoh to'g'risidagi orzu-umidlarini ilgari surgan, tenglik, erkinlik, insof va diёnatga asoslangan davlat tuzimi to'g'risida ko'plab asarlar ёzgan. Birgina "Bahoriston" asari orqali davlatni boshqarish, adolatli tartibni o'rnatish, ma'naviyat va madaniyat uyg'unligini aks ettirish uchun muhim masalalarni ёritib bergan edi. Ushbu asardagi xar bir ravza –bog'cha alohida go'zallik, ezgulik sifatida gavdalanganligini ko'rish mumkin. "Xaft avrang"ga kirgan "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Hiradnomayi Iskandariy" dostonlarida ishq va muhabbat, do'stlik va birodarlik, mehr-shafqat, o'zaro ёrdam, bilimdonlik va boshqa insoniy qadriyatlarni baён etgan. Abdurahmon Jomiy ijodida adabiy asarlardan tashqari din va tasavvuf ta'limotiga bag'ishlangan mavzularni xam ko'rishimiz mumkin. Davlat miqёsida madaniyatni rivojlantirish uchun o'z asarlari bilan alohida o'rin tutgan. Abdurahmon Jomiyning din va falsafani uyg'unlashtirish, shu yo'l orqali falsafiy fikrlar rivojlanishiga zamin yaratishda alohida xizmatlari katta. Birgina "Nafohot ul-uns" asari olti yuz o'n olti mashghur so'fiylar haётiga bag'ishlangan bo'lib, bu asar so'filarning falsafiy-irfoniy va ahloqiy qarashlarini o'rganishda muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Hazrati zuljalolga hamisha ibodat bilan mashg'ul bo'lishlariga qaramay vaqtlarini bekor o'tkazmasdilar.

Hazrat Jomiy asarlarining ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, asarlarining ko'pi garchand diniy ruhda bitilgan bo'lsada, ma'naviy yuksalish, ma'naviy barkamollik, adl va adolat kategoriyalarining e'zozlanishini, davlat boshqaruvini odilona boshqarish kerakligini baён etganligini ko'rishimiz mumkin.

Abdurahmon Jomiy nafaqat temuriylar davri madaniyatiga balki, jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan siymolardandir. Tarixning o'chmas siyrati sifatida o'z asarlari bilan alohida o'rin egallagan mutafakkirlar asarlarini tahlil qilish, o'rganish, ёsh avlodga tatbiq etish xar bir davr talabi va vazifasi bo'lib kelgan.

Jomiy qarashlarida inson nomukammallikni va ijtimoiy borliq illatlarini bartaraf qilib, barkamollikka intilishi kerakligi to'g'risida fikr yuritilgan. Shuning uchun Jomiy o'z shoirona iste'dodining kuchini ochko'zlik, ta'magirlik, vijdonsizlik, dimog'dorlik kabi illatlarni qoralashga yo'naltiradi, turli tabaqalarga tegishli odamlar xatolari, ishtibohlarini ko'rsatad i, narsa, boyliklarga egalik qilishga olib keladigan sabablarning xom hayol ekanligini fosh qiladi. Haqiqiy ehrom, qalbdir, toshdan qurilgan uy emas. Haqiqiy ahamiyatga ega qadriyat, bu, – ma'naviy-axloqiy barkamollikdir. Bilim, falsafa moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun emas, fikrlar va intilishlarni yuksaltirish, Haqiqatga yaqinlashish uchun kerak.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan naqshbandiya tariqati nazariyotchilari tomonidan tasavvuf vakillari orasida ijtimoiy faollik, ya'ni, jamiyatda muayyan bir kasb egallashlari keng targ'ib etilgan, shu bois Husayn Voiz Koshifiy ham tariqat vakillarini halol mehnat qilib kun kechirish g'oyasini quyidagicha bayon etgan: "Bilgilki, darvesh halol va pokiza kasb bilan shug'ullanishi kerak, chunki kasb – tariqatning zaruriy shartidir. Zero, umr o'tkazishga zarur vosita (maosh) hosil bo'lmaguncha kishi xotiri osoyishta bo'lmaydi. Kishi rohati uchun zarur narsa esa vojibdir. Va agar kishi o'z kasbi bilan zaruriy narsalarni muhayyo etmasa, odamlarni ranjitadi, azobga qo'yadi. Demak, kimki jamiyatdan foyda ko'rsayu, lekin foyda yetkazmasa, u ishlamagan bo'ladi. Bas, biror kasb bilan shug'ullanmagan darvesh o'zini xalq bo'yniga yuklagan bo'ladi. Bu esa tariqatda mumkin emas".

Husayn Voiz Koshifiy tariqatda tekinxo'rlik, birovlar hisobiga kun kechirish mumkin emasligini uqtirib o'tadi. Uzlat va tarkidunyochilikni rad etar ekan, tariqat vakillarini halol kasb bilan shug'ullanishga chaqiradi. Tariqat vakillarini ijtimoiy faollikka chaqirar ekan shunday deydi: "shunday qilib, ma'lum bo'ladiki, darvesh uchun kasb zaruriydir va shunga binoan

darvesh kasb odobini ham bilish hamda unga rioya qilishi lozim. Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida adablar mavjud, shuningdek har bir kasb uchun alohida odob ham bor”.

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan mehnat qilib halol turmush kechirish uchun tariqat vakillariga muayyan bir kasb-hunar zarurligini targ'ib etgan hamda har bir tariqat vakillari o'zi egallagan kasb-hunarning axloq-odob qoidalariga mukammal rioya etishlari lozimligini targ'ib qilgan. Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf vakillari egallagan kasblarning mazmun-mohiyati va xususiyatini tushuntirib berishi bilan birga ularning kasb etikasini ham ishlab chiqqan. Husayn Voiz Koshifiy asarlarida servis - xizmat ko'rsatish odoblari mukammal ishlab chiqilgan va allomaning bu mulohazalari Markaziy Osiyoda O'rta asrlarda xizmat ko'rsatish darajasini namoyon etuvchi manba hisoblanadi. Husayn Voiz Koshifiy tomonidan milliy etiketimizga xos bo'lgan mehmon kutish va xizmat ko'rsatishga oid odob qoidalarini hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va mazkur sohada raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, «soxta tariqatchilik»ka qarshi kurashda Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati yoritilib, unda allomaning tariqat vakillarining axloq-odob qoidalarini haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosining ahamiyatli jihati, tariqat vakillarining odob-axloq qoidalarini yoritishda ratsionallik tamoyiliga tayanganligini yoritib bergan. Alloma asarlarida tariqatning mohiyatini ratsionallik tamoyili asosida yoritib berilgan hamda tasavvufning haqiqiy va soxta vakillarini tanqidiy asosda ajratib bera olgan. Husayn Voiz Koshifiy Markaziy Osiyodagi mavjud tasavvuf ta'limotida islom ilohiyotiga muvofiq keluvchi “sof”, “haqiqiy” tasavvuf bilan birga “soxta” tariqat vakillari ham mavjudligini ko'rsatib o'tadi. U har qanday “soxta tariqatlarga” e'tiqod qilish, “soxta pir”larga ergashishni islom dinining o'zi rad etishini asoslab beradi. Alloma islom dinining nazariy manbalari asosida soxta tariqatchilikning jamiyat hayotida zararli illat ekanligini batafsil bayon etar ekan shunday deydi: “Bilgilki, tariqat yo'lining qaroqchilari ko'pdir, ular nodon va kaltafahmlarni hiyla-nayrang donasi bilan makru firib domiga tortish payidadurlar. Shuning uchun rahnamo bo'la oladigan, pirlilik (shayxlik) shartsharoitlari (asoslari)ni yaxshi biladigan odamni pir deb tanlash lozim, Mavlaviy Rumiy aytganiday; “odam qiyofasidagi iblislar ko'p, bas shunday ekan, har kimga qo'l berib bo'lmaydi”.

Koshifiy tomonidan besh asr avval aytilgan bu fikrlar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hozirgi kunda ko'plab diniy qadriyatlarimiz qatori tariqatchilik an'analarini tiklashga bo'lgan harakatlarni kuzatish mumkin. Afsuski, ular orasida bugungi kunda “soxta tariqatchilar” ham uchrab turmoqda. Ularning soxta da'volari, targ'ib etayotgan rasm-rusumlari islom diniga mutlaqo zid ekanligi ulamo olimlarimiz tomonidan diniy manbalar asosida isbotlab berilgan. Shunday bo'lsada bu soxta “pir”larga ergashuvchilar hamon topilmoqda. Bugungi axborotlashgan jamiyat bosqichida jamiyat barqaror taraqqiyotiga ijtimoiy xavf tug'diradigan soxta tariqatchilikka qarshi kurashda Husayn Voiz Koshifiy merosi nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Allomaning kurash musobaqalarini xalq tomosha o'yinlarining ko'rinishi sifatidagi ahamiyatini ochib berganligini, avvalo, uning axloqiy jihatlariniratsionalistik jihatdan asoslab berganligini yoritib bergan. Kurashning ommabop tomoshalardan ekanligini ta'kidlar ekan shunday deydi: “Agar kurashning ma'nosi nima, deb so'rasalar, javob berib aytgilki, buning ma'nosi odamzod xilqatidan kelib chiqadi, chunki odamzod o'z axloqini o'zgartirib boradi, ya'ni, xulq-atvor yaxshilik tomon o'zgarishi kerak va bu so'zning haqiqati shundaki, odamda maqbul va nomaqbul axloqiy sifatlar orasida doimiy kurash boradi, ya'ni, har bir sifat o'ziga qarshi sifatni daf qilish payida bo'ladi (demak) kurash inson xilqatidagi shu xususiyatni ifodalaydi...”. Inson doimo o'z ruhiyatidagi yomon illatlar bilankurashib, ezgu, go'zal axloqiy xislatlarni takomillashtirib borishi zarurligini ta'kidlashi Husayn Voiz Koshifiy axloq falsafasining ratsional mag'zini tashkil etadi.

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan xalq tomosha o'yinlaridan qo'g'irchoqbozlik san'atini faqat yengil hazil-mutoiba emas, balki, chuqur falsafiy mazmun va tarbiyaviy ahamiyat kasb

etishini tushuntirib berganligi bayon etilgan. Qo'g'irchoqbozlik san'atining mohiyatini hamda tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: ey aziz, bilgilki, sohibdil darveshlar qo'g'irchoq o'yinidan ko'p ramzu ishoratlar o'qib, dunyoning sir-sinoatini fahmlab, hiyla haqiqatlarni kashf etibdirlar. Shuni bilish lozimki, shaklu-shamoil, surat olamida zuhur etadigan narsalar hazil mutoyiba bo'lsa-da, ammo, mohiyat-mazmuniga ko'ra, ular jiddiy haqiqatlarni anglatadilar.

O'rta asrlarda qo'g'irchoq san'ati umumxalq tomosha san'ati ekanligi va uning ommaga namoyish etish shakllarini ham to'liq yoritib beradi. Inson doimo o'z ruhiyatidagi yomon illatlar bilan kurashib, ezgu, go'zal axloqiy xislatlarni takomillashtirib borishi zarurligini ta'kidlashi Husayn Voiz Koshifiy axloq falsafasining ratsional mag'zini tashkil etishini asoslab bergan. Tadqiqotda buyuk allomaning xalq tomosha san'ati sohasidagi axloqiy-falsafiy qarashlari hozirgi murakkab globallashuv sharoitida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas va yosh avlodni milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi degan, xulosaga kelingan.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlari, allomalarining ijodida yuksak axloqiy tushunchalar o'zi yashab ijod etgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy muhit bilan bayon qilinib, aynan yurt obodligi, tinchiligi, ravnaqi tushunchasiga urg'u berilmagan bo'lsa-da, allomai zamonlarimizning barcha asarlarida insonparvarlik, vatanparvarlik, yurti, eliga sadoqat, adolat, do'stlik, bunyodkorlik, axloqiy-madaniyat tushunchalari mazmunan boy va shaklan g'oyat rang-barang ifodalangan, bu g'oyaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Афсаҳзод Аълоҳон. Баҳористони беҳазон/Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Душанбе: “Адиб”, 1987. Б.6.
2. Жомий, Абдурахмон. Баҳористон. -Душанбе: “Адиб”, 1987. –Б. 134.
3. Измаилов А.Э. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. -Москва, 1991. - С.39.
4. Кошифий Хусайн Воиз. Футуватномаи султоний; Ахлоқи муҳсиний. Нашрга тайёрловчилар М.Аминов, Ф.Хасанов. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011.- Б.97.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВЗГЛЯДОВ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО- ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Мустаева Руслана Дамировича

Независимый соискатель Ферганского государственного университета

Orcid: 0009-0000-8944-4975

Аннотация:

В статье анализируется научно-теоретическое и воспитательное значение взглядов мыслителей эпохи Тимуридов в формировании социально-нравственных ценностей. Идеи мыслителей о справедливости, честности, гуманизме, патриотизме и просвещении освещены в гармонии с современным воспитательным процессом. Обоснованы возможности использования этого духовного наследия в развитии нравственного мировоззрения молодежи.

Ключевые слова:

Темуриды, мыслители, социально-нравственные ценности, духовное наследие, справедливость, гуманизм, воспитание, мировоззрение.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL PROSPECTS FOR UTILIZING THE VIEWS OF TIMURID PERIOD THINKERS IN THE FORMATION OF SOCIAL AND MORAL VALUES

Mustaev Ruslan Damirovich

Independent researcher at Fergana State University

Orcid: 0009-0000-8944-4975

Abstract:

The article analyzes the scientific-theoretical and educational significance of the views of Timurid period thinkers in shaping socio-ethical values. The ideas of thinkers on justice, honesty, humanism, patriotism and enlightenment are highlighted in harmony with the modern educational process. The possibilities of using this spiritual heritage in the development of the moral worldview of young people are based.

Keywords:

Timurids, thinkers, socio-ethical values, spiritual heritage, justice, humanism, education, worldview.